



International Congress on Biological, Physical And Chemical Studies

International Congress on Biological, Physical And Chemical Studies - is an international conference platform under open access policy. The conference is led by international expert members who take an objective approach to peer review, ensuring each research paper is reviewed, edited by authors and evaluated on its own scholarly merits and research integration. Publishing and joining on the proceeding of the International Congress on Biological, Physical And Chemical Studies will ensure publishing experience and indexing possibilities on various global indexing.

YURTIMIZDA O‘SIMLIKLARNING AHAMIYATI, IQLIMLASHTIRISH SHAROITLARI, MUHOFAZA ETISH MASALALARI VA ISTIQBOLLARI

Sharifmudov Karamatullo Ibrohimzoda

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika universiteti assistenti

Anostatsiya. Ushbu maqolada o‘simlik dunyosi, o‘simliklarni yetishtirish va o‘sish dinamikasi, bioxilma-xillik va uning muhofazasi bo‘yicha fikr-mulohazalar keltirilgan. Bundan tashqari, o‘simlik boyliklari ham, tabiiy ishlab chiqarish kuchlari qatorida kishilar hayotida g‘oyat muhim rol o‘ynab kelgan va o‘ynamoqda. Mamlakatimiz o‘simlik boyliklari orasida oziq-ovqat, yem-xashak, kauchuk, bo‘yoq moddalari beradigan, vitaminli, efirli, shuningdek, dorivor va juda ko‘p qimmatbaho o‘simliklari bor. Inson hayotini deyarli o‘simlikka bog‘liqligi, tutgan o‘mi hususida so‘z.

Kalit so‘zlar: florasi, biologik xilma-xilligi, muhofaza etilishi, o‘simlik dunyosi, to‘qay, dinamika, dorivor o‘simliklar, sistematika, istiqbolli loyihalar.

Kirish. Vatanimiz xalq xo‘jaligini yuksaltirishning manfaatlari bepoyon mamlakatimizdagi tabiiy boyliklarni keng miqyosda rivojlantirishni, o‘rganishni, ulardan eng ko‘p foydalanishni talab qiladi. Mamlakatimizning juda ko‘p tabiiy boyliklari bor. Mo‘l-ko‘l oziq-ovqat mahsuloti va xomashyo hosil qilish, keng iste‘mol ashyolari ishlab chiqarish masalalarini hal etishda Vatanimizning tabiiy boyliklari ichida uning o‘simlik boyliklari alohida o‘rinda turadi.

Keyingi yillarda Markaziy Osiyo regionini, jumladan, O‘zbekiston tuproq iqlim sharoitlarining o‘zgarishi, ikkinchi tomondan sanoatning jadal sur‘atlar bilan rivojlanishi, qishloq xo‘jaligida turli kimyoviy moddalarning qo‘llanilishi hamda insonning tabiatga nooqilona tazyiq ko‘rsatishi natijasida biologik resurslarga keskin ta‘sir etish holatlari kuzatilmoqda. Natijada o‘simliklarning kamayishi, nobud bo‘lish holatlari yuzaga kelmoqdaki, bu bevosita ekologik himoyani taqazo etadi.

Ma‘lumki O‘zbekiston hududida Zarafshon vohasi nafaqat tuproq-iqlim sharoitlari, balki o‘simliklar dunyosi bilan boshqa tabiiy geografik nohiyalardan farq qiladi. Shu bois, Zarafshon vohasi tabiiy o‘simlik resurslaridan tejamli va oqilona foydalanish aholining

o'simliklar mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoji va sanoatni xomashyo bilan ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy ilmiy manbalarda Zarafshon vohasining tabiiy o'simliklar resurslariga oid ma'lumot mavjud bo'lsada, ammo uning turli iqlim-sharoitlarida tarqalishi, foydalanilishi va nodir o'simliklar muhofazasiga oid ma'lumotlar deyarli kam uchraydi. Shunday kelib chiqqan holda O'zbekiston, jumladan, Zarafshon vohasining o'simliklar resurslarini o'rganish, ularning zahiraviy holatlarini baholash hamda ularni muhofaza qilish bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. To'qayli o'simliklarning o'ziga xos xususiyati shundaki, u alohida gidrotermik sharoitda rivojlanadi (yozning yuqori havo darajasida, mo'tadillik va yomg'irli havoda). Uning yashash va rivojlanish sharoiti ko'pincha biologik xususiyatlariga ham bog'liq.

To'qayli o'simliklar ri-vojanishning yirik ildizli tizimiga, suv va loyqa bosgan yerlarga moslashgan. Barcha to'qayli o'simliklar sho'rlanish va tuproqning qurishiga favqulodda mutanosiblashadi. To'qayli o'simliklar yetilguniga qadar shzflanishga chidamli bo'ladi.

Metodlar. Introduksiyaning vazifalari:

–dorivor o'simliklarni turli iqlim sharoitlariga introduksiya qilish (bioekologik xususiyatlarini va rivojlanish ritmini o'rganish);

– dorivor o'simliklarning moslashish darajasini aniqlash va istiqbolli turlarini tanlash; –dorivor o'simliklarekin maydonlarini yaratish;

– bioekologik xususiyatlarini aniqlash; – dorivor o'simliklarni introduksion tahlil qilish;

-dorivor o'simliklarni introduksion baholash.

Introduksiyaning usullari. Ekologik ta'rixiy (Ekologo-istoricheskiy metod) usul- Bu usulda introdutsent (o'simliklar) obyekt tabiiy florasi tarixiy analiz qilish bo'yicha o'rganiladi va baxolanadi. Ekologik genetik usul- Bu usulda introduksiya qilinadigan o'simliklar ekologik sistema va kelib chiqish holati bo'yicha o'rganiladi. Ekologik-introduksiya usuli- Bu usulda o'simliklar introduksiya sharoitiningekologik omillarga bo'lgan munasabatiga ko'ra eksperimental tajribalar asosida o'rganiladi va baholanadi. Turkum kompleks (metod rodovoy kompleks) usuli- Bu kompleks usul bo'lib, turkum doirasidagi o'simlik turlar introduksiya sharoitida eksperimental asosida o'rganiladi va baholash. 1. Introduksiya omillari (tabiiy va antropogen)-Introduksiya

To'qayli o'simliklarga fitotsenoz rang-baranglik xos bo'lib, favqulodda bir xil bo'lmagan tuproq qatlami bilan bog'lanadi. O'rmon qurilishi qoshidagi formatsiyalarga bo'linadi: a) daraxtli to'qay, b) butazorli to'qay, v) o'tli to'qay. Formatsiyalar o'z joylari xususiyatiga qarab 46 assotsiatsiyaga bo'linadi: qayirli, qayir ustidagi, cho'llanishli.

Chakanda. Jirg'anoq. (*Hippophae*) -jiydadoshlar oilasi, daraxtsimon yoki butasimonlar turkumi. Jiydadoshlar oilasiga mansub bo'lib, bo'yi 4 – 6 m ga yetadigan ikki uyli buta yoki kichik daraxt. Poyasi sershox va tikanli bo'lib, qo'ng'ir-yashil po'stloq bilan qoplangan. Barglari chiziqsimon-nishtarsimon yoki chiziqsimon, yuqori tomoni kulrang-to'q yashil, pastki tomoni bir oz sarg'ish qo'ng'ir-kulrang yoki oq tusli, tekis qirrali bo'lib, poya va shoxlariga qisqa bandi yordamida ketma-ket o'rnashgan. Gullari bir jinsli, mayda va ko'rimsiz, kalta boshqochaga (otalik gullari) yoki 2-5 tanadan shoxchalar qo'ltig'ida (onalik gullari) joylashgan. Mevasi dumaloq yoki cho'zinchoq, to'q sariq yoki qizg'ish rangli, sersuv, danakli meva.

Chakanda aprel-may oylarida gullaydi, mevasi avgust-oktabrda pishadi.

Chakanda keng arealli o'simlik hisoblanadi. Chakandadan 250 ta dan ko'proq har xil oziqali, dorivor va kosmetik mahsulotlar tayyorlanadi. Chakanda yorug'sevar, sovuqqa chidamli o'simlik. Chakanda urug'idan, poya va ildiz qalamchalardan ko'paytiriladi. Chakanda kuzda yoki erta bahorda ekiladi. Birinchi yili sekin o'sadi, 15-30 sm balandlikka boradi. Shuning uchun har 3-4 sug'orishdan keyin kultivatsiya va yagana ishlari olib boriladi. Birinchi yili 12 marta sug'oriladi. Vegetatsiya davri oxirida ildizlari maxsus asbobda kesilib ixchamlashtiriladi. Vegetativ yo'l bilan ko'paytirilganda asosan yashil qalamchalardan foydalaniladi. Iyun – iyul oylarida ko'chatlar o'tkaziladi. Qalamchalar ertalab uzunligi 8-12 sm qilib, 8-10 barg qoldirib tayyorlanadi. Qalamchalar qum, go'ng va torf aralashmasiga ekiladi.

Zirk- (*Berberis vulgaris* L.), qoraqand- zirkdoshlar (zirkgullilar oilasi) ga, zirkdoshlarga mansub butalar turkumi. Barglari qalin, qisqa bandli, ketmaket joylashgan. Guli sariq, qo'sh gulqo'rg'onli, shingilga to'plangan mevasi rezavor. Shimoliy yarim sharda tarqalgan. 194 turi bor. 45 turi iqlimlashtirilgan. O'zbekistonning tog' yon bag'irlarida qizil zirk bilan qora zirk tarqalgan. Bargi tarkibida berberin, oksikontyn, berbamin va boshqa alkaloidlar bor. Ularning mevalari nordon, mazali bo'lganligidan turli xil taomlarga, jumladan, palovga solinadi, ovqatni xushta'm qiladi. Tabobatda jigar xastaliklarini davolashda, isitmani pasaytiruvchi, ich ketishni to'xtatuvchi va yurakni mustahkamlovchi vosita sifatida qo'llaniladi.

Jiyda- (*Elaeagnus* L.) jiydadoshlar oilasiga mansub. *To'qay* mintaqasida jiydalarning keng tarqalganligiga asosiy sabab quyidagilardan iborat. Birinchidan, tuproq strukturasining jiydalar uchun mosligi, ya'ni qumli allyuvial tuproqning bo'lishi. Bunday tuproqlarda vegetativ yo'l bilan oson ko'payadi. Ikkinchidan, yorug'lik va issiqlik optimal miqdorda bo'ladi. Uchinchidan, bahor va kuzda toshqinlar va sellar ko'proq bo'ladi. To'rtinchidan, jiydalarning umumiy biologik xususiyati aynan shu mintaqalar uchun optimal hisoblanadi.

To'qay o'simliklari. Bular daryo vodiylarida uchraydigan o'simliklardir. Bu o'simliklar cho'llar zonasida joylashgan bo'lsa ham ularni cho'l o'simliklar tipiga kiritib bo'lmaydi. Bu o'simliklar toshqin suvlar bosadigan yerlarda, shuningdek sizot suvlari, yuza bo'lgan yerlarda o'sadi. Ular namdan toliqmaydi va ularning tuzilishida kseromorflik belgilari ko'rinmaydi. To'qay o'simliklari Markaziy Osiyoning Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon, Chirchiq, Ohangaron, Surxandaryo kabi yirik daryolar bo'yida yaxshi o'sadi. Daraxt o'simliklaridan turangil terak, tol, jiyda kabi o'simliklar uchraydi. Bularga ilon chirmoviq chirmashib o'sadi. Buta o'simliklaridan yulg'un, jing'il, oqtikan, oq chingil, sho'rxok yerlarda sho'ra o'simligi, qora baroq, o't o'simliklaridan qamish, ko'ralar va boshqalar uchraydi. Suv toshadigan yerlarida ro'vak, qizilmiya, kendir o'sadi. Birmuncha quruq yerlarda savacho'p, yantoq, oqbosh, qizilmiya va boshqalar uchraydi. O'zbekiston tog'larining o'simliklari.

Markaziy Osiyo tog'laridagi o'simliklar poyasini tasvirlashda har xil olimlar turlicha sxema taklif qilgan. Akademik K.Zokirov Markaziy Osiyo tog'laridagi o'simliklarni uchta vertikal poyasga ajratadi. Bular adir (tog' oldi), tog' (tog'larning o'rta poyasi) va yaylov (tog' tepalari) poyaslaridir. Adirlar dengiz sathidan 500- 700 m dan 1200-1600 m gacha baland bo'lgan tog' oldi tepaliklari bo'lib, ularni cho'llar zonasi bilan tog'lar o'rtasidagi bosqich deyish mumkin. Adirlar tuprog'i to'q bo'z tuproq bo'lib, efemerli cho'llar tuprog'iga o'xshaydi, lekin ularga qaraganda tarkibida organik moddalar ko'p.

Adirlarning ayrim joylarida tog' jinslari yoki ularning emirilish mahsulotlari qattiq

tuproq, shag'al - tosh va qum - shag'allar ko'rinib turadi. Bu yerlarda jazirama yoz kam bo'lib, yog'in ko'p (250-350 mm) yog'adi. Adir o'simliklari asosan rang o'simliklari formatsiyalaridan tarkib topgan. U yerlarda karrak, kovrak, oq quvray va qo'ziquloqlar eng ko'p uchraydi. Yuqori adirlarni har xil o'tlar (bug'doyik, chalov) o'sadigan quruq dasht ishg'ol qilgan. Tog'larnig o'rta poyasi o'simliklari. Adirlar poyasining yuqorisini, dengiz sathidan 1200- 1500 m dan 2800-3000 m gacha bo'lgan balandliklarni tog'lar poyasi ishg'ol qiladi. Adirlarga nisbatan tog' poyasining reliefi birmuncha notekis.

O'zbekistonda tog' poyasi katta maydonni ishg'ol qilmaydi. Tyanshanning g'arbiy tarmoqlarida (Qurama va Chotqol tizmalarida), Pomir- Oloy tog'larida, Zarafshon tizmasida, Turkmaniston va Xisor tizmalariniing bir qismida tipik tog' poyasini ko'rish mumkin. Tog' poyasidagi o'simliklarni ikki asosiy tipga: dasht o'simliklari va daraxt - buta o'simliklariga ajratiladi. Dasht o'simliklari tog' poyasining aksari quyi qismida o'sadi va ular asosan bug'doyiq - har xil o'tlar hamda dasht formatsiyalaridan iborat.

Hulosa. Ilmiy asarlardagi jiyda turlari mintaqalar bo'yicha taqqoslab kurilganda *E. spinosa* va *E. songarica* turlarining cho'lda ko'prok uchrashi, *E. angustifolia*, *E. oxycarpa*, va *E. iliensis* laming adirda ko'p tarqalganligi ma'lum bo'ldi. Shunday qilib turkum doirasida turlarning aniq bir mintaqaga moslashmaganligi, ya'ni tik mintaqalarga qarab turlar har xil tarqalishga ega.

O'zbekiston "Qizil kitob" iga kiritilgan, tabiatda o'sib turgan to'plarini nazorat ostiga olish lozim. Bulardan tashqari Zarafshon qayirida uchraydigan, kamayib borayotgan reлект turlarga ham asosiy e'tibor qaratib kelingan. Bunday turlarga turonga, turang'il, qizil do'lanani kiritish mumkin, turang'il ikki joyda saqlanib qolgan, ularning orasida bir necha tup turonga ham uchraydi. Shunday ekan, yurtimizda uchraydigan barcha turdagi o'simliklarni muhofaza etish, aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash nafaqat jamiyat, balkim, har bir fuqaroning burchi va vazifasi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'. Prator, Q. Jumayev. Yuksak o'simliklar sistematikasi. Qo'llanma. Toshkent. 2003 y.
2. Xurramova N. X , Mirzaliyev S.R , Juraxijayev D.D "O'rta Zarafshon havzasi landshaftlariga antropogen ta'sir va havza landshaftlarining rivojlanish qonuniyatlari" 2020 y.
3. Умрзакова З.И., другие. Деградация тугайных лесов Узбекистана и возможности их восстановления. Международный научный журнал «Вестник науки» № 5 (26) ,№2. май 2020 г.
4. Акжигитова Н.И. Растения как индикаторы засоления почв. Ташкент, 1960.- 166 с.
5. Аламанов С.К., Лелевкин В.М., Подрезов О.А., Подрезов А.О.Изменение климата и водные проблемы в Центральной Азии. Москва-Бишкек, 2006.-188 с.
6. Арифканова М.М. Тугаи ферганской долины // Труды ТашГУ. Ботаника.
7. Ю.Алиев Г.А. Прикурьинские тугайные леса Азербайджана. Баку: Элим, 1976.- 136 с.
8. Антропогенные воздействия на водные ресурсы России и сопредельных государств в конце XX столетия / отв. ред. Н.И. Коронкевич и И.С.Зайцева. М.: Наука, 2003. - 367 с.
9. Арифханова М.М. Тугаи Ферганской долины // Труды Таш. ГУ. Ботаника. В. 187. Кн. 3 8. - 1961. С. 77-80.